

"Turkiston" saroyida O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi



Tadbirda umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta'lim muassasalarining ilg'or o'qituvchilari, fidoyi murabbiylar, vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirot etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigini Prezidentning Davlat maslahatchisi X.Sultonov o'qib eshittirdi.

Prezidentimiz rahnamoligida istiqlojning dastlabki yillardanoq ta'lim sohasini tubdan isloh etishga alohida e'tibor qaratildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarning hayotga keng joriy etilishi mamlakatimizni taraqqiy ettirish, turmushimizni farovonlashtirish, hech kimdan kam bo'limgan navqiron avlodni voyaga yetkazish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliyl dasturi asosida mamlakatimizdagagi umumta'lim maktablarining deyarli barchasi rekonstruksiya qilindi, tubdan ta'mirlandi, yuzlab yangi maktablar bunyod etildi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, maxsus maktab-internatlar, "Barkamol avlod" bolalar markazlari, bolalar va o'smirlar sport, musiqa va san'at maktablari, litseyu kollejlar, oliv ta'lim dargohlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, faoliyatini davr ruhiga mos tarzda yo'lga qo'yish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'llsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir" degan fikri xalqimiz orasida ezgu da'vatga aylandi. Sharafli kasb egalarining mehnatini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirdi. O'tgan yillar mobaynida ta'lim sohasidagi yuzlab ustoz-murabbiylar Vatanimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlandi. Ular orasida O'zbekiston Qahramonlari borligi yanada quvonarlidir.

Bugungi integratsiyalashuv jarayoni kuchaygan, axborotlashgan zamon o'qituvchini ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan unumli foydalananadigan ijodkor ustoz darajasiga ko'tarishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" respublika ko'rik-tanlovi ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.



Bu yil ham ushbu tanlovda o'z fani bo'yicha o'ziga xos tajriba maktabi yaratgan, har bir darsni yangi uslubda, qiziqarli va hayotiy misollar, turli ko'rgazmali vositalar bilan o'tayotgan ilg'or pedagoglar saralandi. Tantanali yig'ilishda g'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Davlatimiz rahbarining 2005-yil 25-noyabrdagi "Xalq ta'llimi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori o'qituvchilar ko'nglini tog'dek ko'tardi, ularni yanada ko'proq izlanishga, o'quv-tarbiya jarayonini yanada boyitishga undadi.

Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarini o'qitish, xorijiy tillarni puxta biladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratmoqda.

Chet tili o'qituvchilari Davlat test markazi tomonidan doimiy ravishda sinovdan o'tkazilib, ularning maoshiga qishloq joylarda 30 foiz va boshqa ta'llim muassasalarida 15 foiz miqdorida qo'shimchalar berib borilmoqda. Bu mas'uliyatli va sharaflı kasb sohiblarini o'z ustida tinimsiz ishlashga, barkamol avlod tarbiyasida yanada faol bo'lishga undamoqda.

Ta'llim-tarbiya jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida barcha umumta'llim maktablarida "Oila – mahalla – ta'llim muassasasi" hamkorligi jamoat kengashining faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini doimiy tahlil etib borish, yoshlarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini tobora kuchaytirish, 9-sinfni tamomlagan o'quvchilarni ta'llimning keyingi bosqichiga to'liq qamrab olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtboshimiz rahnamoligida barpo etilgan 1500 dan ortiq akademik litsey va kasb-hunar kollejida yoshlarga o'zi tanlagan yo'nalish va soha sirlari o'rgatilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lif tizimi bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli standartga o'tkazildi.

Tadbirda san'at ustalari va yosh ijrochilar ishtirokida katta konsert namoyish etildi.

Tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi N.Yo'ldoshev, Qonunchilik palatasining Spikeri N.Ismoilov, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.Mirziyoyev ishtirok etdi.

[O'za](#)